

MAVZU: O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA LATIFA, LOF VA ASKIYANING O‘RNI

ADPI Ijtimoiy fanlar kafedrası (PhD)dotsent Abdullayeva N.A

ADPI Ijtimoiy gumanitar fanlar va san‘at fakulteti

M.I.G‘.M.A.H.T 201-guruh talabasi Ehsanova Dilobar

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim qismlaridan biri bo‘lgan latifa, lof va askiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Yuqorida sanab o‘tilgan ushbu janrlar orqali xalqning hayotiy tajribasi, hissiyoti va donoligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, latifalar yordamida jamiyatdagi kamchiliklar va ijtimoiy masalalarga hazil bilan yondashib, o‘quvchilarga saboq beriladi. Loflar mubolag‘ali ifodalar orqali xalqning o‘ziga xos ko‘ngilchanligi va soddaligini ko‘rsatadi, askiyalar esa hozirjavoblik va zehnlilikni rivojlantiradi. Ushbu janrlar o‘zbek xalqining ma‘naviy qadriyatlarini, an‘analarni yangi avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi va og‘zaki ijodning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: latifa, lof, askiya, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и значение анекдотов, лофов и аскиев, которые являются одной из важных частей узбекского фольклора. Через перечисленные выше жанры показаны жизненный опыт, эмоции и мудрость народа. Кроме того, с помощью анекдотов учащиеся преподают урок, подходя к социальным проблемам и недостаткам общества с юмором. Лофы через преувеличение показывают своеобразную жизнерадостность и простоту народа, а аскии развивают настороженность и сообразительность. Эти жанры играют важную роль в передаче духовных ценностей и традиций узбекского народа новым поколениям и являются неотъемлемой частью устного творчества.

Ключевые слова: латифа, лоф, аския, узбекский фольклор.

ANNOTATION

This article analyzes the role and importance of anecdotes, lofs and askiyas, which are one of the important parts of Uzbek folklore. Through these genres listed above, the life experience, emotions and wisdom of the people are shown. In addition, with the help of anecdotes, students are taught a lesson by approaching social issues and shortcomings in society with humor. Lofs show the peculiar cheerfulness and simplicity of the people through exaggeration, and askiyas develop alertness and intelligence. These genres play an important role in conveying the spiritual values and traditions of the Uzbek people to new generations and are an integral part of oral creativity.

Key words: *latifa, lof, askiya, Uzbek folklore.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi deganda xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan badiiy ijodiy asarlar tushuniladi. Bu ijod turlari yozma shaklda emas, balki og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib keladi va o‘zida xalqning tarixi, madaniyati, ma’naviyat, qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlari qo‘shiq, ertak, doston, maqol, matal, latifa, lof va askiyalardir. Bu janrlar orqali xalq o‘z hayotiy tajribasini, aqidasi va hikmatini ifodalaydi, hamda o‘z ma’naviy merosini saqlab qoladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi o‘ziga xos tuyg‘ularni va milliy o‘zlikni aks ettirib, hozirgi kungacha o‘z qadrini yo‘qotmagan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida latifa, lof va askiyalar muhim o‘rin tutadi, chunki ular xalqning turmush tarzini, his-tuyg‘ularini, aqlli va donishmandona fikrlarini ifodalaydi. Bu janrlar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha qiziqarli hikoyalar, latifalar, askiyalar va kulgili voqealar vositasida yetkaziladi va ularni o‘ylantirishga sabab bo‘ladi. Qadimdan xalqimizning sevimli janri bo‘lib kelgan, latifaga to‘xtaladigan bo‘lsak, latifalar qisqa va mazmunli bo‘lib, o‘zida hazil, qochirim va o‘qimishli xulosalarni mujassamlashtiradi. Latifalar ko‘pincha ma’lum bir mavzuda yoki tanqidiy qarashlarda bo‘lib, jamiytdagi kamchiliklar, oila va munosabatlar, ijtimoiy masalalar kabi mavzular ko‘rsatiladi. Bunday hikoyalar orqali xalq ma’naviy qadriyatlarni kuchaytirishga harakat qiladi. Darhaqiqat, latifalar satira va yumorga asoslanadi. Bu uning o‘ziga xos belgilaridan biri. Latifalar orqali ko‘rsatilgan voqea va hodisalar yechimida satira va yumor hal qiluvchi rol o‘ynaydi-qahramonning g‘alabasini, ayni paytda qarshi tomondagi kulgili holatning mag‘lubiyatini ta’minlaydi. Latifalar asosan kichik maishiy mavzularga bag‘ishlangan bo‘ladi. Latifalarda insonlar turmush tarzi, ijtimoiy hayotidagi kamchiliklar bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Sharqiy xalqlar og‘zaki ijodidagi latifalarning o‘z qahramonlari bor. O‘zbeklarda Xo‘ja Nasriddin yoki Nasriddin Afandi, qozoqlarda Aldarko‘sa, turkmanlarda Mirali, qirg‘izlarda Umirbek laqqi, tojiklarda jo‘xa yokida Nasriddin Afandi nomlari bilan xalq orasida mashhur. Latifalar qadimdan shakllanib kelgan va hozirga qadar o‘z o‘rnini yo‘qotmagan¹. Lof-o‘zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan biri bo‘lib, o‘zining tuzilishi, hajv va yumorga asoslanishi bilan latifa va askiyaga yaqin turadi. Shuning uchun ham u yoki bu lofbozning so‘zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. ²Lofda o‘z-o‘zini ulug‘lash yoki imkoniyatdan kattaroq gapirish usuli ko‘rinadi. Bu janrda aytilgan voqealar ko‘pincha mubolag‘ali, lekin eshituvchilarda tabassum uyg‘otadi. Lof orqali o‘zbek xalqining o‘ziga xos

¹ N.Abdullayeva „Etnomadaniyat“ fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi

² N.Abdullayeva „Etnomadaniyat“ fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi

ko'ngilchanligi va hazil-mutoyiba tuyg'usi ifodalanadi. Ular orqali odamlarning o'z imkoniyatlariga ishonishi, o'ziga ishonchni oshirish va ko'ngil ochish maqsad qilinadi. Loflar mavzu doirasida turli xil bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Bir tomonda ijobiy jihat ko'rsatilsa, ikkinchi tomonda salbiy belgilar, kamchiliklar ochib beriladi. Askiyaning ham o'zbek xalq og'zaki ijodida o'ziga xos o'rni bor. Janrning atamasi arabcha „zakiy“ so'zidan olingan bo'lib, ko'plikdagi „zakiyo“ atamasi keyinchalik „askiya“ atamasi shakliga o'zgargan. Askiya – o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati, adabiyoti va so'z san'atining yorqin namunalari biri. Bu janrda ikki yoki undan ortiq odamlar o'zaro so'z o'yini orqali kuch sinashadi. Askiyachilik xalq orasida hozirjavoblik, zakovat va o'tkir zehnlilikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bunda odamlarning tez va aniq fikrlashlari talab etiladi, shu bois askiya o'zbek xalqi orasida hurmat qilinadi. Misol uchun Andijon askiya maktabi, Qo'qon askiya maktabi, Toshkent askiya maktabi, Buxoro askiya maktabi shular jumlasidandir.³

Xulosa qilib aytganda, latifa, lof va askiyalar xalq orasida bir-biriga yaqin bo'lib, o'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ular orqali xalq o'z tajribalarini yangi avlodlarga o'tkazadi, ijtimoiy hayotning mazmunini anglatadi va jamiyatda qiziqarli bir madaniy qatlam hosil qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida latifa, lof va askiyalar xalqning hayotiy falsafasi, madaniyati va o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim janrlardir. Latifalar jamiyatdagi turli mavzularni hazil orqali osonroq anglashga yordam beradi; loflar esa mubolag'alar bilan tinglovchilarning kayfiyatini ko'taradi va o'ziga ishonch hissini oshiradi. Askiyalar o'zaro so'z o'yinlari orqali odamlarning hozirjavobligi va zehni oshirib, ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi. Ushbu janrlar xalqning aqidaviy va ma'naviy qadriyatlarini avlodlardan avlodga yetkazishda beqiyos rol o'ynaydi va xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://arxiv.uz>
2. <https://portal.guldu.uz>
3. <https://library-samdukf.uz>
4. <https://cyberleninka.ru>
5. N. Abdullayevaning „Etnomadaniyat“ fani bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmasi 43-48 bet